

**NAMANGAN TO‘QIMACHILIK SANOATI INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**

PhD.03/04.10.2023.T.174.01 RAQAMLI ILMY KENGASH

NAMANGAN TO‘QIMACHILIK SANOATI INSTITUTI

SODIQOVA FERUZA ABDULXAY QIZI

**TASHQI TA’SIRDAN YUQORI HIMOYA XUSUSIYATIGA
EGA BO‘LGAN MAXSUS KIYIM ISHLAB CHIQISH**

05.06.04–Tikuvchilik buyumlari texnologiyasi va kostyum dizayni

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Namangan 2024

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferatining mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor philosophy (PhD)
on technical sciences**

Sodiqova Feruza Abdulxay qizi

Tashqi ta’sirdan yuqori himoya xususiyatiga ega maxsus kiyim ishlab chiqish 3

Содикова Феруза Абдулхай кизи

Разработка специальной одежды с высокими защитными свойствами от внешнего воздействия..... 23

Sodikova Feruza Abdulkhay kizi

Development of special clothing with high protective properties from external influences 45

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 48

**NAMANGAN TO‘QIMACHILIK SANOATI INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**

PhD.03/04.10.2023.T.174.01 RAQAMLI ILMY KENGASH

NAMANGAN TO‘QIMACHILIK SANOATI INSTITUTI

SODIQOVA FERUZA ABDULXAY QIZI

**TASHQI TA‘SIRDAN YUQORI HIMOYA XUSUSIYATIGA
EGA BO‘LGAN MAXSUS KIYIM ISHLAB CHIQISH**

05.06.04–Tikuvchilik buyumlari texnologiyasi va kostyum dizayni

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Namangan 2024

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.PhD/T3730 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan to'qimachilik sanoati institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Namangan to'qimachilik sanoati instituti huzuridagi Ilmiy Kengashning veb-sahifasida (www.nsi.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Tashpulatov Salix Shukurovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Rasulova Mastura Kabulovna
texnika fanlari doktori, professor

Temirova Gulnoz Ibodovna
texnika fanlari falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona politexnika instituti

Dissertatsiya himoyasi Namangan to'qimachilik sanoati instituti huzuridagi PhD.03/04.10.2023.T.174.01 raqamli Ilmiy Kengashning 2024 yil "14" dekabr soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160605, Namangan sh., Janubiy aylanma yo'li ko'chasi, 17-uy, tel. (+99855) 251-43-04, 455-43-04. e-mail: info@ntsi.uz, namTSI@exat.uz, Namangan to'qimachilik sanoati instituti ma'muriy binosi, 1-qavat, kichik majlislar zali).

Dissertatsiya bilan Namangan to'qimachilik sanoati instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 26-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 160605, Namangan sh., "Janubiy aylanma yo'li ko'chasi" MFY, 17, tel. ((+99855) 255-43-04).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil "02" dekabr kuni tarqatildi.
(2024 yil "16" sentyabrdagi № 25-raqamli reyestr bayonnomasi).



Handwritten signature of Q.M. Xoliqov

Q.M. Xoliqov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, texnika
fanlari doktori, professor

Handwritten signature of X.T. Bobojanov

X.T. Bobojanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, texnika
fanlari doktori, dotsent

Handwritten signature of J.Q. Yuldashev

J.Q. Yuldashev
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, texnika
fanlari doktori, dotsent

KIRISH (PhD doktorlik dissertatsiyasining qisqacha mazmuni)

Dissertatsiya mavzusi dolzarbligi va zarurati. Jahonda yengil sanoat sohasida zamonaviy ilm-fan va texnika yutuqlaridan samarali foydalangan holda qurilish sohasi uchun mo'ljallangan tikuv buyumlarini tayyorlashda ergonomik nuqtayi nazardan qulay konstruksiyalarni ishlab chiqish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda "To'qimachilik va yengil sanoat bozorida 2020 yilga nisbatan ishlab chiqarish qiymati 2025 yilgacha 26,2 foizni o'rtacha yillik o'sish sur'ati esa 6,2 foizni tashkil etishi bashorat qilinmoqda"¹. Bu borada, jumladan sifatli tashqi mexanik ta'sirdan saqlovchi maxsus kiyimlarini ishlab chiqarishga talab yuqori bo'lib, ularning sifatini va raqobatbardoshligini oshirish, assortimentini kengaytirish, ergonomik loyihalash tamoyilariga asoslangan metodologiyasini va ishlab chiqishning samarali texnologiyasini amaliyotga joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda tikuv buyumlarini ishlab chiqarishda texnologik jarayonlarning ta'sir etadigan muhim omillarini aniqlagan holda, ilmiy asoslangan texnika va texnologiyalarni ishlab chiqarishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan, yuqori himoya xususiyatiga ega bo'lgan maxsus kiyim sifatini ta'minlash uchun yuqori gigiyenik va ekspluatatsion hususiyatlarga ega import o'rnini bosuvchi mahalliy materiallardan foydalanish, ekspluatatsiyalash jarayonida ularga ta'sir etuvchi xavfli va zarali omillarni aniqlash, ilmiy asoslangan texnologiyalarni ishlab chiqarish usuli dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda tikuvchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini va mahsulot turini ko'paytirish imkonini beradigan texnologiyalarni ishlab chiqish bo'yicha ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan "Yangi zamonaviy texnologiyalarni olib kirish bilan birga mahalliy xomashyolardan samarali foydalanib, qiymati qo'shilgan xaridorgir mahsulotlar yaratib, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini 1,4 barbarga oshirish."¹ bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarini amalga oshirishda, xususan, qurilish sohasida ishlaydiganlar uchun hayot havfsizligini ta'minlaydigan tashqi mexanik ta'sirdan saqlovchi maxsus kiyimlarni yaratish muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarda mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 son farmoni, 2019 yil 16 sentabrdagi "Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PK-4453-son va 2020 yil 5 maydagi "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini qo'llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida"gi PK-5989-son qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 sonli "2022-2026 yillarda mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni

hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi bo‘yicha tadqiqotlar respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. «Energetika, energiya va resurstejamkorlik» ustuvor yo‘nalishga mos keladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tashqi ta’sirlardan yuqori himoya hususiyatiga ega bo‘lgan maxsus kiyimlarni konstruktiv jihatdan loyihalash, smaxsus kiyimlarda ergonomik hususiyatlarini hisobga olgan holda kiyim ishlab chiqarish kabi masalalarni hal qilishda bir qator taniqli xorijiy olimlar katta hissa qo‘shganlar, jumladan N.V.Afanogentova, S.L.Georgiyeva, R.F. Afanaseva, M.V.Nikolayeva, A.A.Anisimov, M.L.Urvantseva, V.I.Kudryavtseva, Y.O.Lebedeva, I.V. Cherunova, T.P.Lopatchenko, D.A.Sovetnikov, Y.A.Drofina, V.Y.Eremina, Lebedeva Ye.O. va boshqalar.

Maxsus mo‘ljallanishdagi kiyimlarni yaratish bo‘yicha O‘zbekistonning taniqli quyidagi olimlarini S.Sh.Tashpulatov, S.U.Pulatova, M.K.Rasulova, O.M.Yo‘ldasheva, N.Z.G‘aybullayeva, Sh.Mamasolieva va boshq. ilmiy ishlari bag‘ishlangan. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida kiyimlarni loyihalashda, unga qo‘yiladigan talablarni shakllantirish va sifatini oshirish, erkin harakatni ta‘minlash va iste‘mol talablariga mos buyumlar ishlab chiqarish bo‘yicha salmoqli natijalarga erishildi.

Shu bilan birga maxsus kiyimlarni ishlab chiqish sohasidagi erishilgan yutuqlarga qaramasdan respublikamizda qurilish sohadagi ishchilari uchun ularning real mehnat sharoitlari va sog‘lig‘iga salbiy ta‘sir ko‘rsatadigan zararli ishlab chiqarish ta’sirlarini hisobga olgan holda yuqori sifatli maxsus kiyimlarni ishlab chiqish bo‘yicha muammolar yetarli darajada o‘rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim yoki muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan to‘qimachilik sanoati institutining ilmiy-tadqiqot ishlari va 09-23 sonli “Tashqi mexanik ta’sirlardan himoya qiluvchi maxsus kiyimni ishlab chiqish” mavzusidagi xo‘jalik shartnoma doirasida bajarildi.

Tadqiqotning maqsadi: Qurilish sohasi ishchilari maxsus kiyimiga yangi turdagi polimer-kompozision materialni qo‘llash orqali tashqi ta’sirdan himoya hususiyatiga ega bo‘lgan maxsus kiyimning ratsional variantini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

qurilish sohasi ishchilarining mavjud maxsus kiyimlarini eskirish va yemirilish topografiyasini taxlil qilish;

respublika to‘qimachilik bozoridagi holatni o‘rganish asosida qurilish soha ishchilari maxsus kiyimi uchun tashqi mexanik ta’sirlardan himoyalovchi materiallar paketini tanlash va uni asoslash;

tashqi ta’sirdan himoyalovchi materiallar paketini kiyimda qo‘llash uchun yangi turdagi cho‘ntakni loyihalash;

taklif etilayotgan maxsus kiyimni real ekspluatatsiyalash jarayonlarida tajriba sinovidan o‘tkazish va sifat ko‘rsatkichlarini baholash hamda ratsional konstruksiyasini ishlab chiqish;

taklif etilayotgan maxsus kiyimni konstruktorlik-texnik hujjatlarini tayyorlash va ishlab chiqarish sharoitlarida abrobatsiyadan o'tkazish va iqtisodiy samaradorligini hisoblash.

Tadqiqotning obyekti sifatida qurilish sohalari ishchilarining maxsus kiyimi olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida mahsulotni hayotiy siklining asosiy bosqichlarini o'z ichiga olgan maxsus kiyimni tizimli loyihalash uslubi olingan.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida belgilangan vazifalarni hal qilish uchun maxsus kiyimlarni loyihalashga tizimli yondoshuv, matematik va optimizatsion modellashtirish usullari, ilmiy tajribani rejalashtirish usullari, ijtimoiy so'rovnoma usullari, ekspert baholash usullari, faktorli tahlil hamda matematik statistika usullari, to'qimachilik materiallari xususiyatlarini aniqlashning standart usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

maxsus kiyimga ta'sir etuvchi tashqi mexanik ta'sir va xavfli ishlab chiqarish omillarining tadqiqi va iste'molchilar ehtiyojlarini hisobga olgan holda yangi turdagi "to'qimachilik material + rezina + to'qimachilik material" dan iborat tizimdan tashkil topgan himoya mexanizmi taklif etilgan;

maxsus kiyim uchun mahalliy xomashyodan tayyorlangan tashqi mexanik ta'sirdan himoyalovchi paketlar komponentlarining bikirligi, deformatsiyalanuvchanligi, qalinligi kabi ko'rsatkichlarining optimal varianti yaratilgan;

maxsus kiyimni konstruktiv parametrlarini dinamik moslik ko'rsatkichlariga bog'liqligining regressiya tenglamalari ishlab chiqilgan va buyumning orqa kengligiga, ko'krak satxiga beriladigan qo'shimcha xaqlar qiymati, eng o'mizi kabi konstruktiv parametrlarining optimal qiymatlari asoslangan;

mehnat jarayonida ishchilar harakatlarining erkinligini va qurilish soha sharoitida kiyimning dinamik mosligini ta'minlaydigan funksional-konstruktiv va funksional-dizayn kabi ko'rsatkichlari bilan farqlanadigan maxsus kiyim to'plami tavsiya qilingan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

qurilish soha ishchilari uchun mexanik ta'sirdan himoyalovchi maxsus kiyimi materiallar paketining maqbul tolaviy tarkibi va qalinligi tanlangan;

mexanik ta'sirdan himoyalovchi qatlam sifatida import o'rnini bosuvchi mahalliy xom-ashyolardan tayyorlangan polimer-kompozitsion materiallarni qo'llash hisobiga maxsus kiyimni ekspluatatsiya qilish vaqtining uzayishi evaziga iqtisodiy samaraga erishilgan;

iste'molchilar ehtiyojlari va ishlab chiqariladigan mato xususiyatlaridan kelib chiqqan holda maxsus kiyimning zamonaviy modellari hamda mehnat jarayonida ishchilar harakatlarini erkinligini ta'minlaydigan maqbul variantdagi ishlab chiqilgan;

taklif etilayotgan maxsus kiyimni qurilish soha ishchilariga qo'llash natijasida ishchining mehnat sharoitlarida qulayli, sog'lom muhit yaratilgan ishlab chiqarish unumdorligi oshishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot yakunida o'z aksini topgan ilmiy tamoyillar, xulosalar va tavsiyalarning ishonchliligi va izchilligi nazariy va

eksperimental tadqiqotlar natijalari, aprobatsiya va joriy etishning ijobiy natijalari, shuningdek, natijalarni taqqoslash, ma'lum baholash mezonlariga ko'ra ularning adekvatligi, tadqiqotlarining ijobiy natijalarining o'zoro mosligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati qurilish sohasi ishchilari uchun mo'ljallangan maxsus kiyimni tizimli loyihalash uslubiyatini yaratilishi, maxsus kiyimlarni loyihalashning turli bosqichlarida foydalaniladigan ma'lumotlarni tizimlashtirish va shakllantirish, aniq hamda oqilona qarorlarini qabul qilishni ta'minlanganligi, tashqi mexanik ta'sirdan himoya etuvchi maxsus kiyimning maqbul materiallar paketini va variantlarini ishlab chiqish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qurilish sohasi ishchilarining mehnat sharoitlarining sog'lomlashtirilishi, mehnat unumdorligining oshishi, maxsus kiyimni ishonchliligi va uning ekspluatatsiya davrining oshishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qurilish sohasi ishchilari maxsus kiyimining ratsional konstruksiyasi va samarali ishlab chiqarish texnologiyasi bo'yicha olingan natijalar asosida:

O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligining sanoat namunasiga ("Qurilish sohasi ishchilari uchun tashqi mexanik ta'sirdan himoyalovchi maxsus kiyim komplekti" (№ SAP 2597) patenti olingan. Natijada qurilish sohasi ishchilarining mehnat sharoitlari yaxshilangan, mehnat jarayonida ishchilarga, ergonomik nuqtai nazardan, qulay sharoitlar yaratilgan, maxsus kiyimning sifati yaxshilangan va uning ekspluatatsiya davri oshgan;

qurilish sohasi ishchilari uchun yaratilgan maxsus kiyim komplektlari va ularning konstruktorlik-texnik hujjatlar paketi "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi tasarrufidagi tikuvchilik korxonalarida, shu jumladan, "IDEAL TEXTIL ORZU" MCHJ, "NT Xolding Home textile" MCHJ, (Namangan viloyati) korxonalarida ishlab chiqarishga joriy qilingan ("O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasining 2023 yil 18 dekabrda 03/25-654-sonli ma'lumotnomasi). Natijada moddiy resurslarni tejash va ishlov berish texnologiyasini takomillashtirish asosida ishlab chiqarilgan mahsulot birligiga nisbatan mehnat unumdorligi 18,3 % ga oshishiga erishilgan hamda qurilish sohasi ishchilari sifatli maxsus kiyim bilan ta'minlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, shundan 3 ta xalqaro, 4 ta respublika miqyosida muhokama qilingan va ijobiy baholangan.


Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya ishi natijalari 18 ta ilmiy ishlarda, shu jumladan 4 ta O'zR Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan nashrlarda, 2 ta Scopus ma'lumotlar bazasiga kiritilgan xalqaro ilmiy nashrlarda chop etilgan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk agentligi EHM dasturi uchun № DGU 20227330, DGU 32292 guvoynoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi vahajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 112 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyektlari va predmeti tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Qurilish sohasi ishchilari uchun maxsus kiyimni ishlab chiqarish masalasining tarixi va bugungi holati”** deb nomlangan birinchi bobida qurilish sohasiga oid maxsus kiyimni ishlab chiqishga oid ilmiy-tadqiqotlarning retrospektiv taxlili asosida tashqi mexanik ta’sirdan himoya qilishga mo‘ljallangan maxsus kiyimlarni loyihalash va ishlab chiqish bo‘yicha tadqiqot ishlari olib borilmaganligi aniqlangan. Shu borada qurilish sohasi uchun yaratilgan maxsus kiyimlar ikki toifaga bo‘linishi, qurilish ishlarini olib borishning tasniflanishi ko‘rsatilgan (1-rasm).




1-rasm. Qurilish sohasida olib boriladigan obyektlar tasnifi.

Qurilish ishlarini turli fasllarda, kechayu-kunduz olib borilishini hisobga olib, inson organizmining termoregulyatsiya reaksiyalarining zo‘riqishi va jismoniy faoliyat ko‘rsatkichining pasayishi, turli darajadagi sovuq qotishida inson organizmida issiqlik tanqisligi, qurilish sohasida ishlaydigan ishchilar mehnat sharoitlari va maxsus kiyimga ta’sir etuvchi ishlab chiqarishning zararli omillari, jumladan, tashqi mexanik ta’sirdan himoyalovchi maxsus kiyim komponentlarining assortimenti tahlil etilgan.

Dissertatsiyaning **“Ishlab chiqarish sharoitlarini hisobga olgan holda qurilish sohasi ishchilari maxsus kiyimiga qo‘yiladigan talablarni o‘rganish”** deb nomlangan ikkinchi bobida marketing tadqiqotlari o‘tkazildi. Marketing izlanishlar mavjud usullar asosida amalga oshirildi va to‘rt bosqichdan iborat bo‘ldi: - marketing

izlanishlarni maqsadlarni aniqlash va usullarini tanlash; - so'rovnomada ishtirokchilar sonini aniqlash; -ma'lumotlar yig'ish; - maxsus kiyim uchun ratsional materiallar, konstruktiv yechimlar va ranglar haqida tavsiyalarni shakllantirish. So'rovda 18 yoshdan 50 yoshgacha bo'lgan 400 dan ortiq (2-rasm) qurilish sohasi ishchilari ishtirok etishdi.


■ 18-25 ■ 26-35 ■ 36-45 ■ 46-55



2-rasm. Qurilish sohasida ishlaydigan ishchilarning yoshi bo'yicha taqsimlanishi.

Mexanik ta'sirdan himoyalovchi kiyimlarni loyihalashning asosiy tamoyillari, turli konstruktiv yechimdagi kiyimlarning tashqi ta'sirdan izolyatsiya qilish xususiyatlari, inson tanasining turli qismlarida maxsus kiyimning mexanik ta'sirdan saqlash xossalari tahlil etilgan. Qurilish sohasi ishchilarining mehnat xususiyatlarini o'rganish natijasida ta'sir etuvchi ishlab chiqarish omillari aniqlangan va ularning maxsus kiyimga ta'sirining topografik xaritasi ishlab chiqilgan (3-rasm).

■ quyosh nur ■ chang
■ mexanik ta'sir ■ boshqa ta'sir




3-rasm. Qurilish sohasi ishchilari maxsus kiyimiga ta'sir etuvchi zararli omillar.

Gistogrammadan ko'rinib turibdiki, qurilish sohasi ishchilarning kiyimiga ta'sir darajasi bo'yicha birinchi o'rinda mexanik, keyingi o'rinda chang va quyosh nuri, oxirgi o'rinda esa boshqa ta'sirlar turadi.

Loyihalaniyotgan maxsus kiyimni asosiy tavsiflarini aniqlash, tanlash va

asoslash maqsadida qurilish sohasi ishchilari o'rtasida anketa so'rovnoma o'tkazilgan bo'lib, olingan ma'lumotlar statistik ishlovidan keyin qurilish ishchilari maxsus kiyimining asosiy xossalari asoslangan (4-rasm).



a)

b)




v)

4-rasm. Respondentlarning maxsus kiyim xususiyatlarining ahamiyati.

(a)- afzal to'plami turi; (b) – tozalash oraligi (ya'ni, yuvish) va (v)- muxim sifat ko'rsatkichlari haqidagi fikrlarining taqsimlanishi.

Gistogrammalardan ko'rinib turibdiki (4-rasm), ko'pchilik respondentlar tomonidan maxsus kiyimning eng afzal turi sifatida kurtka va shim (yarimkombenizon)ni tanlagan (61%) bo'lsa, maxsus kiyimning asosiy xossalari sifatida esa birinchi o'rinda funkcionalligi (34%), ikkinchi o'rinda ish jarayonida qulayligi (25%), uchinchi o'rinda ishonchligi (21%) va oxirgi o'rinda tashqi ko'rinishi (20%) ko'rsatilgan. Ishlab chiqarish sharoitlarini va iste'molchilar ehtiyojlarini hisobga olgan holda urilish sohalari ishchilari maxsus kiyimiga qo'yiladigan talablar shakllantirilgan.

Maxsus kiyimlarni ishlab chiqarishda foydalanilayotgan mato namunalarini suv o'tkazuvchanligi, namlanish vaqti, suvni qanday darajada shimishi hamda mato yuzasida suvning tarqalish tezliklarini aniqlash uchun uchta na'muna olib, ularni material namligini o'lchovchi FY200 nomli jixoz yordamida tekshirdik (5-rasm).



5-rasm. Maxsus kiyim uchun tanlangan materialning uzilishi va uzayishdagi uzilish ko'rsatkichlari.


Grafik taxlillaridan ko'rishimiz mumkinki birinchi na'muna eni bo'yicha 800 N kuch ta'sirida 42,2 mmga, bo'yi bo'yicha 800 N kuch ta'sirida 35,9 mm ga, ikkinchi eni bo'yichna'muna 800 N kuch ta'sirida 26.9 mm ga, bo'yi bo'yicha 800 N kuch ta'sirida 19.5 mm ga, uchinchi na'muna 800 N kuch ta'sirida eni bo'yicha 36,0 mmga, bo'yi bo'yicha 800 N kuch ta'sirida 33,9 mm ga uzayganligi aniqlandi.



6-rasm. Maxsus kiyim uchun mo'ljallangan matoning havo o'tkazuvchanligi ko'rsatkichlari.

Shuningdek, maxsus kiyimlar tana bilan bevosita aloqada bo'lib, uning sifati buyum loyixalashda hisobga olinadi. Shu sababli gazlamaning gigienik (6-rasm) kapilyarlik xususiyatlari ko'rsatkichlari (7-rasm) aniqlandi.

Dissertatsiyaning **“Polimer-kompozitsion materialni qo'llash orqali maxsus kiyim himoya xususiyatini takomillashtirish”** deb nomlangan uchinchi bobida tashqi mexanik ta'siridan himoyalovchi maxsus kiyimlar uchun mo'ljallangan materiallar paketining xossalari **“TAVOKUL QURILISH LOYIHA”** MCHJ korxonasi va Namangan to'qimachilik sanoati instituti laboratoriyasida o'rganilgan.



7-rasm. Tanlangan matolarning fizik-mexanik xossalarini tadqiqoti.

Qurilish sohasi ishchi xodimlarini ish jarayonidagi turli xil mexanik ta'sirlardan himoya qilish maqsadida kauchuk, oltingugurt hamda turam moddalarini turli miqdorda qo'shish orqali elastikligi yuqori, yumshoq hamda mustaxkam bo'lgan rezina ishlab chiqildi (8-rasm).



8-rasm. Polimer kompozitsiya na'munalari.

1-jadval.


Tashqi mexanik ta'sirdan himoyalovchi paket komponentlarining tarkibi

	Tarkibi (1kg uchun %)	Zichligi (kg/m ³)	Bikrligi mN	Preslash bosimi
I- namuna	Kauchuk-30	915	10.7	130 ⁰
	Oltingugurt -60			
	Tiuram -10			
II- namuna	Kauchuk-20	913	10.2	150 ⁰
	Oltingugurt -60			
	Tiuram 20			
III- namuna	Kauchuk-10	918	9.4	-
	Oltingugurt -60			
	Tiuram -30			

Yuqoridagi 1-jadvalda turli tarkibdagi rezina aralashmasi na'munalari keltirilgan. Olingan yangi turdagi rezinalarni modda tarkibi, zichligi, bikrligi hamda preslash bosimi qiymatlari quyidagi jadvalda keltirilgan.

Birinchi namunani olishda 1 kg uchun sintetik kauchukdan 30%, oltingugurt 60% va tiuram 10% nisbatda olinganda elastik, yumshoq, rezina xosil bo'ldi (I-na'muna). Aralshma tarkibini olishda oltingugurtni satndartga ko'ra 60 foizgacha ruxsat etilganini hisobga olgan xolda tiuram xamda sintetik kauchuk ulushini o'zoro almashtirib ko'rdik ya'ni sintetik kauchukni 20%ga kamaytirib, tiuram moddasini 30% nisbatda olganimizda elastik jixatdan yaxshi, biroq difarmatsiyasi qaytmas bo'lgan rezina hosil bo'ldi (III-na'muna).

Olingan polimer kompozitsion material aralashma miqdorlarini grafik yordamida taxlil qilib chiqamiz (9-rasm).



9-rasm. Tashqi mexanik ta'sirdan himoyalovchi olimer kompozitsion material aralashma miqdorlarining grafik ko'rinishi.

I-na'munada oltingugurtni o'zgartirmagan holda sintetik kauchuk (20%) va tiuram (20%) moddasini teng miqdorda aralashtirganimizda biroz qattiq ebonit modda hosil bo'ldi. Olingan rezinalarni loyixalanayotgan kiyimga yeng ko'p shikastlanuvchi qismlariga joylashtirdik. Kurtka uchun yelka, yeng tirsak qismiga joylashtirgan bo'lsak, kambinzon uchun eng ko'p zararlanadigan nuqtasi tizza qismi ekanligini hisobga olgan holda shim tizza qismiga o'rnatildi (10-13-rasmlar).

Bundan tashqari olingan rezina na'munalarini press yordamida matoga biriktirganimizda, kauchuk na'munalarini mato yuzasiga turli xil bosim ostida birikdi. I-na'muna 130° bosim ostida matoga juda mustahkam xolatda birikdi.



10-rasm. Rezinani mato ustiga presslash.



11 -rasm. Presslash mashinasi.

Ikkinchi namunani 150⁰ gradus bosim bilan mato yuzasiga biriktirdik.




12-rasm. Rezinani mato ustiga presslash.




13-rasm. Presslash jixozi.

Olingan polimer-kompozitsion materialni loyihalananayotgan kiyimga eng ko‘p shikastlanuvchi qismlariga joylashtirdik. Kurtka uchun yelka, yeng tirsak qismiga joylashtirgan bo‘lsak, kambinzon uchun eng ko‘p zararlanadigan nuqtasi tizza qismi ekanligini hisobga olgan holda shim tizza qismiga o‘rnatildi (14-15-rasmlar).




14-rasm. Maxsus kiyim yelka, yeng va tirsak qirgimida polimer kompozitsion qo‘shimcha uchun mo‘ljallangan yangi turdagi cho‘ntakni joylashma sxemasi.




15-rasm. Maxsus kiyim shim tizza qirgimida polimer kompozitsion qo‘shimcha uchun mo‘ljallangan yangi turdagi cho‘ntakni joylashma sxemasi.

Kiyim sohasida joylashgan rezina qatlamiga tashqi ta‘sir etuvchi F kuchning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil etiladi. Bu turdagi kuch asosan kiyimlarda inson


tanasini ayrim sohaslarini tashqi obektlar bilan ta'sirlanishidan yuzaga keladi. Masalan tizza sohasini olaylik:



16-rasm. Deyarli to'liq o'tirish pozitsiyasi.



17-rasm. Bir tizza bilan o'tirgan hol.



18-rasm. Tizza bilan tashqi ta'sirlanish sxemalari.

Kiyim sohasidagi elastik element (rezina) qatlamining deformatsiyasiylanish qalinligini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$\Delta d = \frac{F}{A \cdot E} \quad (1)$$

bu yerda d –rezina deformatsiyalanish qalinligi, F – rezinaga ta'sir etuvchi kuch, ya'ni inson og'irlik kuchining tizzasi orqali boshqa jism (masalan yerga) ta'siri, A -(Area) boshqa jism bilan tizzaning kontakt yuzasi, E – qayishqoq element (rezinaning) qalinligi.

Yuqoridagi ifodaga mos holda, ayni shu ifodani:

$$d = \frac{F}{A \cdot E} \quad (2)$$

Masalan $m = 100 \text{ kg}$ og'irlikka ega inson 1-rasm c) da ko'rsatilganidek tizzasi bilan yerga tayanib 90° burchak ostida yerga tayanib o'tiribdi. Bunda deyarli insonning og'irligi tizzasi orqali yerga ta'sir etadi. Og'irlik kuchi:

$$G = mg$$

ifoda orqali aniqlanadi.

Faraz qilaylik tizza orqali yerga ta'sir etuvchi kuch $F = 850 \text{ N}$, tizzalarning ta'sirlashish yuzasi $8831,25 \text{ mm}^2$ ni tashkil etsin. Taklif etilayotgan rezina elastiklik moduli $E = 10 \frac{\text{N}}{\text{mm}^2} = 10 \text{ MPa}$.

U holda rezinaning deformatsiyalanishi quyidagicha bo'ladi:

$$\Delta d = \frac{F}{A \cdot E} = \frac{850 \text{ N}}{8831,25 \text{ mm}^2 \cdot 10 \frac{\text{N}}{\text{mm}^2}} = 9,625 \text{ mm},$$

Olingan qiymatga asoslangan holda maxsus kiyimning o'ziga xos tashqi ta'sir qiymatini yuqori qaytarish xususiyatiga ega rezinadan foydalanildi. Rezina qalinligi $d > \Delta d$ tengsizligi bajarilishi uchun rezina qalinligi 10-14 mm bo'lishini taklif etildi.

Dissertatsiya ishining keyingi bosqichida matematik rejalashtirish usulida polimer-kompozitsion material olishdagi aralashma tarkibini optimallashtirish amalga oshirildi. Qurilish sohasi ishchilari uchun polimer-kompozitsion materialni qo'llash orqali detallarning ekspluatatsion xossalarini ta'minlash usuli bilan maxsus ish kiyimlari tayyorlash texnologiyasini ishlab chiqishda turli xossali va o'lchamli komponentlarni aralashtirishga to'g'ri keladi. Bu xolda eng katta muammolardan biri tashkil etuvchi komponentlar ulushlarini optimallashtirish masalasidir.

Tadqiq etilayotgan aralashma tarkibiga kiritilayotgan barcha q – komponentlar qiymati o'zgarishini aniqlashda ishchi matritsalar ko'rinishi o'zgartirilishi talab etildi.

Aralashma tarkibini optimallashtirishda ko'p sonli matritsalar ichida "Sheffe" matritsasi keng tarqalgan bo'lib, tarkibidagi kauchuk, oltingugurt hamda turam moddalarining ulushining miqdori kiyimning xossasiga ta'siri o'rtasidagi regression bog'lanish matematik modelini olishda "Tarkib-xossa" matematik modellari uchun "Sheffe" matritsasi simpleks-panjarali matritsasiidan foydalanildi (2-jadval). Sheffe matritsalar va yeltirilgan polinomlar regressiya koeffitsiyentlarini hisoblash /formulalari keltirildi.

Uch komponentli aralashma tarkibini ifodalovchi regression tenglama tanlashda Sheffe ning kanonik polinomidan foydalanildi.

$$Y_R = b_{1k}x_1 + b_{2k}x_2 + b_{3k}x_3 + b_{12}x_1x_2 + b_{13k}x_1x_3 + b_{23k}x_2x_3$$

Matematik modellarni o‘zaro taqqoslashda modeldagi tajribaviy aniqlanishi lozim bo‘lgan koeffitsiyentlar soni 6 tani tashkil qiladi.

1. Ikkinchi darajali keltirilgan polinom ($n = 2$).

Bu misol uchun komponentlar soni $q = 3$ ga teng bo‘lganda regression model ko‘rinishi (1.) kabi bo‘lib, uning koeffitsiyentlari quyidagi formuladan aniqlandi:

$$b_{1k} = Y_1 \quad b_{2k} = Y_2 \quad b_{3k} = Y_3$$

$$b_{12k} = 4Y_{12} - 2Y_1 - 2Y_2$$

$$b_{13k} = 4Y_{13} - 2Y_1 - 2Y_3$$

$$b_{23k} = 4Y_{23} - 2Y_2 - 2Y_3$$


Yuqorida keltirilgan modelni ushbu matritsa yordamida o‘tkazilgan tajribalar natijasida olish mumkin.

2-jadval.

“Tarkib-xossa” matematik modellari uchun “Sheffe” matritsasi

u	x_{1u}	x_{2u}	x_{3u}	Y_u	Y_u
1	1	0	0	Y_1	Y_1
2	0	1	0	Y_2	Y_2
3	0	0	1	Y_3	Y_3
4	1/2	1/2	0	Y_{12}	Y_{12}
5	1/2	0	1/2	Y_{13}	Y_{13}
6	0	1/2	1/2	Y_{23}	Y_{23}

2-jadvalda keltirilgan matritsa tajribalari 6 ta nuqtada tegishli ulushlarda o‘tkazildi.



19-rasm. Matritsa sxemasi.

Tayyorlanayotgan matoning fizik hossalari qo‘yiladigan talablar gazlamaning vazifasi bilan belgilanadi va ularning tola tarkibi, tuzilishi va pardozi bog‘liq bo‘ladi. Matritsa tuzish tartibiga ko‘ra aralashmani tashkil etuvchi komponentlar sifatida quyidagicha belgilandi:

x_1 - sintetik kauchuk ulushi;

x_2 - oltingugurt ulushi;

x_3 - tiuram ulushi.

Aralashmaning tarkibini kiyimning himoya xususiyatiga ta‘sirini tadqiq etish uchun olib borilgan izlanishlar asosida chiquvchi parametrlar sifatida quyidagi olindi:

Y- polimer-kompozitsion materialning bikrligi;

Tajribalar o‘tkazish uchun ishchi matritsasi tuzib olindi (3-jadval).

Tajribalar o‘tkazish ishchi matritsasi

Tajriba raqami	Tolalar aralashmasi tarkibi			Bikrligi			
	x_{1u}	x_{2u}	x_{3u}	Y_{1u}	Y_{2u}	Y_1	\bar{Y}_u
1	1	0	0	19.1	18.9	19.2	19.3
2	0	1	0	0	0	0	0
3	0	0	1	9.3	9.2	8.9	9.1
4	0,5	0,5	0	7.2	7.8	7.4	7.6
5	0,5	0	0,5	5.1	5.3	5.6	5.4
6	0	0,5	0,5	3.7	3.5	3.6	3.9

Ushbu matritsa yordamida quyidagi ko‘rinishdagi uchinchi darajali keltirilgan regression matematik modeli aniqlanadi:

$$Y_R = b_{1k}x_1 + b_{2k}x_2 + b_{3k}x_3 + b_{12}x_1x_2 + b_{13k}x_1x_3 + b_{23k}x_2x_3$$

Regressiya koeffitsiyentlari qiymatlari quyidagicha aniqlanadi:

$$b_{1k} = \bar{Y}_1 = 19,3 \quad b_{2k} = \bar{Y}_2 = 0 \quad b_{3k} = \bar{Y}_3 = 9,1$$

$$b_{12k} = 4\bar{Y}_{12} - 2\bar{Y}_1 - 2\bar{Y}_2 = 4 \cdot 7.6 - 2 \cdot 19.3 - 2 \cdot 0 = -8.2$$


$$b_{13k} = 4\bar{Y}_{13} - 2\bar{Y}_1 - 2\bar{Y}_3 = 4 \cdot 5.4 - 2 \cdot 19.3 - 2 \cdot 9.1 = -35.2$$

$$b_{23k} = 4\bar{Y}_{23} - 2\bar{Y}_2 - 2\bar{Y}_3 = 4 \cdot 3.9 - 2 \cdot 0 - 2 \cdot 9.1 = -2.6$$

Aniqlangan regressiya koeffitsiyentlarini inobatga olib, tolalar aralashmasi tarkibi bilan mato paketining tashqi mexanik ta’sirdan saqlash xususiyati orasidagi regression bog‘liqlikni ifodalovchi matematik model quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$Y_R = 19.3x_1 + 9.1x_3 - 8.2x_1x_2 - 35.2x_1x_3 - 2.6x_2x_3$$

Ushbu model orqali aniqlangan chiquvchi parametr, ya’ni noto‘qimaning issiq saqlash xususiyatini aniqlab simpleks panjaraning tegishli nuqtalariga joylab, bir xil qiymatlarni birlashtirish orqali aralashma tarkibiga kiruvchi komponentlarni optimal ulushlari aniqlanadi.



20-rasm. Simpleksdagi tajriba o‘tkazish nuqtalari.

sintetik kauchukni 10% va tiuram moddasini 30% tashkil etganda (3-tajriba) biroz sinuvchan (mo‘rt) material hosil bo‘lishini ko‘rishimiz mumkin (20-rasm).

Diagramma tahlilida polimer kompozitsion materialning tarkibidagi moddalar ulushini o‘zgarishi maxsus kiyimning himoya xususiyatiga ta’sirini optimallashtirish jarayonini ko‘rishimiz mumkin. Birinchi tajribada 30% sintetik kauchuk, 60% oltingugurt xamda 10% tiuram tashkil etganda himoya va elastiklik xususiyatini eng yukori bo‘lishiga; sintetik kauchukni 10% ga kamaytirganimizda (2-tajriba) o‘rtacha egiluvchan (ebonit) material,

Kauchuk moddasi sanoatda juda keng qo'llaniladi. Birok unga to'ldiruvchi modda sifatida tiuram xamda oltingugurt moddalarini aralashtirish hisobiga materialning elastiklik xususiyatini oshirish xamda tannarhini kamaytirishga erishildi. Yangi polimer kompozitsion material olish nazariy-amaliy tajribalar orqali aniqlandi.

Shunday qilib, to'liq omilli tajribalar natijalariga asosan birinchi variantdagi qalinligi 14 mm ga teng bo'lgan polimer-kompozitsion materiallar paketi qurilish sohasi ishchilari tashqi mexanik ta'siridan himoyalovchi maxsus kiyimi uchun optimal hisoblanadi.

Dissertatsiyaning **“Qurilish sohasi ishchilari uchun yuqori himoyalash xususiyatli maxsus kiyimni konstruktiv-texnologik hujjatlarini ishlab chiqish”** deb nomlangan to'rtinchi bobida ishchilar mehnat sharoitlarini, maxsus kiyimga ta'sir etadigan omillar, iste'molchilar ehtiyojlarini inobatga olgan holda qurilish sohasi ishchilari uchun maxsus kiyim modellari ishlab chiqildi, bunda ularning funktsionalligi, estetikligi va konstruktiv parametrlarining optimalligining korxonaning korporativ uslubiga mosligiga urg'u berilgan. Kurtka va shimdan iborat maxsus kiyim komplekti “Corel Draw” kompyuter dasturi yordamida ishlab chiqilgan (21-rasm). Ishlab chiqilgan maxsus kiyimni konstruktiv yechimini yangiligini tasdiqlovchi Intellektual mulk agentligining № SAP 2597 sonli patenti olingan.



21- rasm. Tashqi mexanik ta'sirdan himoyalovchi qurilish sohasi ishchilari uchun maxsus kiyim komplekti.

Ratsional qo‘shimcha haqlar miqdorini aniqlash maqsadida ergonomik izlanishlar o‘tkazildi. Buning uchun qurilish sohasi ishchilarining mehnat jarayonida eng ko‘p bajariladigan ishchi harakatlar aniqlangan va ularni bajarish vaqtida dinamikada ishchilar gavdasini o‘lchamlarining o‘zgarishi aniqlangan (4-jadval). Ishchilarning tipik gavda o‘lchovlari va ergonomik izlanishlar asosida aniqlangan qo‘shimcha haqlardan foydalangan holda qurilish sohasi ishchilari maxsus kiyimining konstruksiyasi “Richpeace Cad System” dasturi yordamida qurilgan.

4-jadval.

Qurilish sohasi ishchilarining mehnat jarayonida eng ko‘p bajaradigan ergonomik harakatlari va gavda o‘lchamlarining dinamik effektlari

O‘lcham belgilari nomi Dinamik holatlar	Dinamik effekt, $d_j = x_j (d) - x_i (s)$, sm			
	№1 	№2 	№3 	№4 
Orqa kengligi	5,32	11,75	11,38	15,71
Ort bel chizig‘idan tizzagacha bo‘lgan masofa	2,63	17,47	16,81	15,49
Ort tomondan bo‘yin nuqtasidan bel chizig‘igacha tana uzunligi	4,52	2,61	1,24	9,73
Old bel uzunligi	4,67	0,7	0,92	0,62

To‘liq faktorli tajribada olingan natijalarning tahlili tanlangan asosiy faktorlarning dinamik o‘zgarishlarni hisobga olib, quyidagi ratsional qiymatlarini tavsiya qilindi: uchinchi ko‘krak aylanasiga beriladigan qo‘shimcha haq-12 sm; orqa yelka kengligiga beriladigan qo‘shimcha haq-5,2 sm; yeng o‘mizi erkinligiga beriladigan qo‘shimcha haq-5,4 sm. Ushbu optimal qiymatlar maxsus kiyim konstruksiyasini ishlab chiqishda qo‘llanildi.

Tadqiqot ishining asosiy natijalari “IDEAL TEXTIL ORZU” MCHJ, “NT Home textile NT” MCHJ, (Namangan viloyati) tikuvchilik korxonalarida tadbiiq etilganda yillik iqtisodiy samaradorlik 230650000 so‘mni tashkil etgi.

Qurilish sohasi ishchilari maxsus kiyimini real sharoitlarda sinovdan o‘tkazish davrida 2021 yil mart oyidan 2023 yilning fevral oyi, ya’ni 1 yil davomida “TAVOKUL QURILISH LOYIHA” MCHJ qurilish korxonasining real ishlab chiqarish sharoitlarida sinovdan o‘tkazilgan va ekspluatatsiya jarayonida ijobiy baxolangan.

XULOSA

Qurilish sohasi ishchilari uchun tashqi mexanik ta'sirdan himoyalovchi maxsus kiyimni ishlab chiqish bo'yicha o'tkazilgan ilmiy tadqiqot natijalariga ko'ra quyidagi xulosa va tavsialarni berish mumkin:

1. Qurilish sohasi ishchilari kasbiy faoliyatini tahlili asosida mehnat jarayonida ta'sir etadigan salbiy omillar, jumladan mexanik ta'sir va ish kiyimining shikastlanishlari tavsifi aniqlangan va topografiyasi ishlab chiqildi;

2. Tashqi mexanik ta'sirdan saqlovchi maxsus kiyimlarni ishlab chiqarishda ishlatiladigan to'qimachilik materiallar assortimentini tahlili asosida mahalliy xomashyodan tayyorlangan materiallar paketi tanlab olindi;

3. Mavjud ish kiyimining fizik eskirishi va shikastlanishi topografik hududlarini tahlili asosida tashqi mexanik ta'siri oqibatida eng ko'p yemirilanadigan hududlari aniqlanib, ushbu ta'sirlarni kamaytirish maqsadida maxsus kiyim detallarining lokal qismlarida kauchuk rezinaning maxsus tarkibi ishlab chiqildi va yuqori mustahkamlikga ega bo'lgan materiallar paketini qo'llash maqsadga muvofiq ekanligi asoslab berildi;

4. Qurilish sohasi ishchilari maxsus kiyimi materiallar paketi tarkibi va qalinligini tanlash bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida tashqi mexanik ta'sirdan himoyalovchi qurilish sohasi ishchilari maxsus kiyimi uchun detallar lokal uchastkalaridagi paket qalinligi 14 mm ga teng bo'lgan presslangan kauchuk rezinadan tarkib topgan paketlar tanlab olindi;

5. Maxsus kiyimni optimal konstruktiv parametrlarni aniqlash uchun to'liq faktorli tajriba o'tkazilgan, olingan regressiya tenglamalari asosida faktorlarning quyidagi maqbul qiymatlari tavsiya qilingan: uchinchi ko'krak aylanasiga beriladigan qo'shimcha haq – 12 sm; orqa yelka kengligiga beriladigan qo'shimcha haq – 5,2 sm; yeng o'mizi erkinligiga beriladigan qo'shimcha haq – 5,4 sm.;

6. Ishlab chiqilgan maxsus kiyimlarining ekspluatatsion xossalari samaradorligini aniqlash maqsadida 2021 yil martidan 2023 yilning fevraliga qadar 1 yil davomida "TAVOKUL QURILISH LOYIHA" MCHJ qurilish korxonasida real ishlab chiqarish sharoitlarida sinovlar o'tkazildi. 12 oy davomida real ishlab chiqarish sharoitlarida o'tkazilgan sinovlar jarayonida yangi maxsus kiyim shakl barqarorligini, uning materiallari esa ijobiy fizik—mexanik xussalarini yo'qotmagan, tashqi mexanik ta'sirdan himoyalovchi funktsionalligi saqlangan va ijobiy baxolandi;

7. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti natijalariga asosan mahalliy materiallarni qo'llash va ekspluatatsiya davrini uzayishi natijasida yangi maxsus kiyimni ishlab chiqarishga joriy etishdan yillik iqtisodiy samara 230650000 so'mni tashkil etdi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/04.10.2023.Т.174.01 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАМАНГАНСКОМ
ИНСТИТУТЕ ТЕКСТИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

**НАМАНГАНСКИЙ ИНСТИТУТ ТЕКСТИЛЬНОЙ
ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

СОДИКОВА ФЕРУЗА АБДУЛХАЙ КИЗЫ

**РАЗРАБОТКА СПЕЦИАЛЬНОЙ ОДЕЖДЫ С ВЫСОКИМИ
ЗАЩИТНЫМИ СВОЙСТВАМИ ОТ ВНЕШНИХ ВОЗДЕЙСТВИЙ**

05.06.04–Технология швейных изделий и дизайн костюма

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Наманган-2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № В2023.2.PhD/T3730.

Диссертация выполнена в Наманганском институте текстильной промышленности.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета при Наманганском институте текстильной промышленности (www.ntsuz.uz) и на информационно образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Ташпулатов Салих Шукурович
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Расулова Мастура Кабуловна
доктор технических наук, профессор

Темирова Гулноз Ибодовна
доктор философии технических наук, доцент

Ведущая организация:


Ферганский политехнический институт

Защита диссертации состоится “14” декабря 2024 года в 14⁰⁰ часов на заседании при научном совете PhD.03/04.10.2023.T.174.01 при Наманганском институте текстильной промышленности (Адрес: 160605, город Наманган, Южная кольцевая, дом 17. Тел.: (998) 55-251-43-04, (998) 55-255-43-04; e-mail: info@ntsuz.uz, namTSI@exat.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Наманганского института текстильной промышленности (зарегистрирован под № 26 номером). (Адрес: 160605, город Наманган, Южная кольцевая улица, 17. Тел.: +998 55-251-43-04)

Автореферат диссертации разослан “02” декабря 2024 года.
(реестр Протокола рассылки № 25 от “16” сентября 2024 года).




К.М. Халиков
Председатель научного совета
по присуждению учёных
степеней, д.т.н., профессор


Х.Т. Бобожанов
Ученый секретарь научного
совета по присуждению
учёных степеней, д.т.н., доцент


Ж.К. Юлдашев
Председатель научного семинара при
научном совете по присуждению
учёных степеней, д.т.н., доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. Сегодня в области легкой промышленности эффективно используются современные достижения науки и техники, ведется разработка эргономически удобных конструкций для производства швейных изделий, предназначенных для строительной отрасли, обеспечивающих безопасность человека и заменяющих импорт от внешнего механического воздействия от местных использование защитных методов сырья занимает одно из ведущих мест. В мире существует высокий спрос на производство высококачественной специальной защитной одежды от внешних механических воздействий, что требует повышения ее качества и конкурентоспособности, расширения ассортимента, внедрения методологии, основанной на принципах эргономического проектирования и эффективных технологиях разработки. В связи с этим при разработке специальной одежды важно опираться на принципы системного проектирования и использовать ресурсосберегающие технологии.

В мире проводятся научные исследования, направленные на производство научно обоснованных методик и технологий, выявление важных факторов, влияющих на технологические процессы при производстве швейных изделий. В связи с этим в целях обеспечения качества специальной одежды с высокими защитными свойствами необходимо использование отечественных материалов, заменяющих импортные, с высокими гигиеническими и эксплуатационными характеристиками, выявление опасных и вредных факторов, воздействующих на нее в процессе эксплуатации, производство научно обоснованной продукции. На основе внедрения технологий особое внимание уделяется снижению себестоимости продукции и полному обеспечению потребностей внутреннего рынка.

В Республике принимаются комплексные меры в связи с разработкой технологий, позволяющих увеличить объемы производства швейной продукции и вид изделий, и достигаются определенные результаты. УП-60 Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года «Стратегия развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы, в том числе «...при внедрении новых современных технологий, эффективном использовании местного сырья, добавленной стоимости клиентов» создание продукции и повышение конкурентоспособности национальной экономики. При реализации этих задач важно создание специальной одежды, защищающей от внешних механических воздействий, обеспечивающей безопасность жизни работающих в строительной сфере.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит решению задач, предусмотренных в Указах Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП -60 «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы», 16 сентября 2019 года «Дальнейшее развитие легкой промышленности и производства готовой продукции на меры стимулирования» № ПП-4453 и от 5 мая 2020 г., ПП-5989 «О неотложных мерах по поддержке

текстильной и швейно-трикотажной промышленности» и других нормативно-правовых документах, связанных с данной деятельностью.

Соответствие исследований приоритетам развития науки и техники республики. Данное исследование соответствует приоритетному направлению развития науки и технологий Республики П. «Энергетика, энергия и ресурсосбережение».

